# SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra*
*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

SAMARQAND VILOYATI
UZSTAT
STATISTIKA BOSHQARMASI



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko‘plab farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan 2017- yil 8- sentabrdagi 704- qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har taraflama qo‘llab-quvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yilda Prezidentning ellikdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko‘plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Shuningdek Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman) lavozimi joriy qilindi.

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risidagi mazkur ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida, 2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarsiz) shakllantirildi.

# Korxona va tashkilotlar soni

*(2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)*

**Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar** — **57 878** — 115,4 %

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar** — **51 566** — 109,0 %

**Yangi tashkil etilgan korxonalar (yanvar)** — **464** — 50,2 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi ketma-ket amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)*



# Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalar soni

*(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo‘yicha*
*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)*



**27 187** — Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar

**9 855** — Oilaviy korxonalar

**168** — Unitar korxonalar

**7 971** — Xususiy korxonalar

**29** — Aksiyadorlik jamiyatlari

**415** — Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2023- yil yanvar oyida, birlikda)*




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

*(2023- yil yanvar oyida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)*



# Sanoat sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- fevral holatiga koʻra, birlikda)*





*Faoliyat koʻrsatayotgan korxonalarning umumiy soni oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 1,9 foizga oshdi*









*Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar*



*2,4 foizga oshdi*




*Oilaviy korxonalar*




*1,5 foizga oshdi*



*Faoliyat koʻrsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni*



*Oʻtgan yilga nisbatan 7,8 foizga kamaydi*




*Xususiy korxonalar*




*Oʻtgan yilga nisbatan 1,8 foizga oshdi*



# Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)*



***Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,7 foizga oshdi***




***Kichik tadbirkorlik subyektlari***



***3,5 foizga oshdi***




***Mikrofirmalar***




***Kichik korxonalar***




***Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar***



***5,8 foizga oshdi***




***Oilaviy korxonalar***



***1,8 foizga oshdi***




***Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni***



***O‘tgan yilga nisbatan 5,1 foizga oshdi***




***Xususiy korxonalar***




***O‘tgan yilga nisbatan 5,7 foizga kamaydi***



# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)*



***Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 15,9 foizga oshdi***




### *Kichik tadbirkorlik subyektlari*



***15,9 foizga oshdi***




### *Mikrofirmalar*




### *Kichik korxonalar*




### *Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar*



***18,3 foizga oshdi***




### *Oilaviy korxonalar*



***12,0 foizga oshdi***




### *Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni*



***O‘tgan yilga nisbatan 28,7 foizga oshdi***




### *Xususiy korxonalar*







***14,1 foizga oshdi***



# Kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumot

*(2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)*

**51 386**
ro‘yxatdan o‘tgan

**45 416**
faoliyat ko‘rsatayotgan

**454**
2023- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan

## Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Oilaviy korxonalar soni

*(1- fevral holatiga koʻra, birlikda)*




Roʻyxatdan oʻtgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- fevral holatiga koʻra 11 269 tani tashkil etib, bu koʻrsatkich oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 1 485 taga yoki 15,2 % ga oshganligini koʻrish mumkin.

Faoliyat koʻrsatayotgan oilaviy korxonalar soni 9 855 tani tashkil etib, bu koʻrsatkich oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 679 taga yoki 7,4 % ga oshganligini koʻrish mumkin.

2023- yilning yanvar oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 70 tani tashkil etib, bu koʻrsatkich oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 62,4 % ga kamayganini koʻrish mumkin.

## Faoliyat koʻrsatayotgan oilaviy korxonalarning tuman (shahar)lar kesimidagi soni

*(2023- yil 1- fevral holatiga koʻra, birlikda)*



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)






Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra 724 tani tashkil etib, ulardan 683 tasi yoki 94,3 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 27 taga yoki 4,1 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2023- yilning yanvar oyida 6 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2023- yil yanvar oyida, birlikda)*



# Samarqand viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni

*(2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)*



| | Jami | shundan: | |
|---|---|---|---|
| | | qo‘shma korxona | xorijiy korxona |
| ***Samarqand viloyati*** | **683** | **433** | **250** |
| ***Afg‘oniston*** | **39** | **7** | **32** |
| ***Xitoy Xalq Respublikasi*** | **70** | **44** | **26** |
| ***Eron Islom Respublikasi*** | **23** | **7** | **16** |
| ***Qozog‘iston Respublikasi*** | **13** | **9** | **4** |
| ***Janubiy Koreya Respublikasi*** | **32** | **20** | **12** |
| ***Rossiya Federatsiyasi*** | **65** | **20** | **45** |
| ***Tojikiston Respublikasi*** | **7** | **2** | **5** |
| ***Turkiya Respublikasi*** | **87** | **33** | **54** |
| ***Amerika Qo‘shma Shtatlari*** | **19** | **13** | **6** |
| ***Boshqalar*** | ***328*** | **278** | **50** |

Viloyatda 2023- yil 1- fevral holatiga xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar 683 tani tashkil etadi, shundan 433 tasi qo‘shma korxonalar, 250 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi. Davlatlar kesimida ko‘rib chiqqanda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Turkiya Respublikasi 87 ta, shundan 33 tasi qo‘shma korxonalar, 54 tasi esa xorijiy korxonalar, Xitoy Xalq Respublikasi 70 ta, shundan 44 tasi qo‘shma korxonalar, 26 tasi esa xorijiy korxonalar, Rossiya Federatsiyasi 65 ta, shundan 20 tasi qo‘shma korxonalar, 45 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

*(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)*




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

*(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)*




O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Turkiya Respublikasi 12,7 %, Xitoy Xalq Respublikasi 10,2 %, Rossiya Federatsiyasi 9,5 %, Afg'oniston 5,7 %, Janubiy Koreya Respublikasi 4,7 % va Amerika Qo'shma Shtatlari 2,9 % ga to'g'ri kelmoqda.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi tuman (shahar)lar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni



*(2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)*

| | Jami | shundan: qo‘shma korxona | xorijiy korxona |
|---|---|---|---|
| **Samarqand viloyati** | **683** | **433** | **250** |
| **Samarqand sh.** | **321** | **180** | **141** |
| **Kattaqo‘rg‘on sh.** | **22** | **18** | **4** |
| **tumanlar:** | | | |
| **Oqdaryo** | **32** | **22** | **10** |
| **Bulung‘ur** | **24** | **12** | **12** |
| **Jomboy** | **48** | **34** | **14** |
| **Ishtixon** | **18** | **12** | **6** |
| **Kattaqo‘rg‘on** | **16** | **10** | **6** |
| **Qo‘shrabot** | **21** | **10** | **11** |
| **Narpay** | **6** | **3** | **3** |
| **Payariq** | **16** | **10** | **6** |
| **Pastdarg‘om** | **31** | **23** | **8** |
| **Paxtachi** | **9** | **6** | **3** |
| **Samarqand** | **39** | **29** | **10** |
| **Nurobod** | **11** | **10** | **1** |
| **Urgut** | **54** | **43** | **11** |
| **Toyloq** | **15** | **11** | **4** |

# Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlarning tuman (shahar)lar bo‘yicha soni

*(2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)*




2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 57 878 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi, Samarqand shahrida (28,4%), Urgut (8,5%), Pastdarg‘om (8,5%), Samarqand (7,2%), Ishtixon (5,4%), Payariq (5,3%), Kattaqo‘rg‘on (5,1%), Oqdaryo (4,4%), Toyloq (4,4%), Bulung‘ur (4,2%), Jomboy (3,9%), Kattaqo‘rg‘on shahri (3,2%), Narpay (3,2%), Nurobod (3,2%), Paxtachi (2,7%) va Qo‘shrabot (2,4%) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo‘yicha soni

*(2023- yil yanvar oyida, birlikda)*

2023- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 464 ta soniga nisbatan hududlarlagi ulushi, Samarqand shahrida (31,3%), Pastdarg‘om (6,0%), Urgut (8,4%), Samarqand (11,6%), Ishtixon (3,9%), Oqdaryo (3,7%), Kattaqo‘rg‘on (4,5%), Payariq (3,7%), Toyloq (4,3%), Bulung‘ur (5,0%), Jomboy (1,5 %), Nurobod (3,4%), Narpay (2,8%), Paxtachi (2,4%), Kattaqo‘rg‘on shahri (3,6%) va Qo‘shrabot (3,9%) tumanlari ulushiga tegishli.



# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar

*(2023- yilning yanvar oyida, birlikda)*




2023- yilning yanvar oyida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda jami 70 korxonalarning viloyatga nisbatan ulushi, Samarqand shahrida (28,6 %), Kattaqo'rg'on (4,3%), Pastdarg'om (11,4 %), Payariq (1,4 %), Samarqand (22,9%), Bulung'ur (1,4%), Urgut (5,7%), Jomboy (1,4 %), Oqdaryo (5,7%), Ishtixon (2,9%), Toyloq (8,6 %), Narpay (1,4 %), Qo'shrabot (1,4%), va Nurobod (2,9 %) tumanlari ulushga ega.

## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

*(2023- yilning yanvar oyida, birlikda)*




*O'tgan yilga nisbatan % da*



## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri -** axborot ma’lumotnoma tusidagi, real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlar -** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar -** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar -** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar -** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.




Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining **www.stat.uz** rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

**Samarqand viloyati statistika boshqarmasi**

**Statistik registrlarni yuritish bo‘limi**

**Tel.: 66 235-14-42**